O‘ZBEKISTONDA TARIXIY YODGORLIKLARNI SAQLASH VA TIKLASH ISHLARINING RIVOJLANISHI

Axmadaliyev Asadbek Ravshanbek o‘g‘li

University of Business and Science

Tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy va madaniy meros obyektlarini saqlash, konservatsiya va restavratsiya qilish amaliyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari IMRaD ilmiy talablari asosida kompleks tahlil etilgan. Tadqiqotda xalq ustalari ta’mir an’analaridan boshlab dastlabki sovet institutlari (Turkkomstaris, Sredazkomstaris), urushdan keyingi maxsus restavratsiya ustaxonalari tizimi hamda mustaqillik yillarida shakllangan zamonaviy milliy qonunchilik va xalqaro mezonlar (UNESCO, Venetsiya xartiyasi) integratsiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy yodgorliklar, me’moriy meros, saqlash, restavratsiya, konservatsiya, an’anaviy ustachilik, Turkkomstaris, O‘zkomstaris, 3D lazer skanerlash, Venetsiya xartiyasi, madaniy meros obyektlari.

Развитие работ по сохранению и реставрации исторических памятников в узбекистане

Аннотация. В данной научной статье в соответствии с требованиями структуры IMRaD комплексно анализируются исторические этапы развития практики сохранения, консервации и реставрации историко-архитектурных памятников и объектов культурного наследия на территории Узбекистана. Исследование охватывает традиции ремонтных работ народных мастеров, деятельность первых советских учреждений охраны памятников (Туркомстарис, Средазкомстарис), систему специализированных реставрационных мастерских послевоенного периода, а также интеграцию современного национального законодательства, сформировавшегося в годы независимости, с международными нормами и принципами (ЮНЕСКО, Венецианская хартия).

Ключевые слова: исторические памятники, архитектурное наследие, сохранение, реставрация, консервация, традиционное ремесленное мастерство, Туркомстарис,

Узкомстарис, 3D-лазерное сканирование, Венецианская хартия, объекты культурного наследия.

The development of historical monument preservation and restoration in uzbekistan

Abstract. This article comprehensively analyzes the historical stages in the development of practices for preserving, conserving, and restoring historical and architectural monuments and cultural heritage sites in Uzbekistan, following the IMRaD structure. The study covers the repair traditions of local master craftspeople, the activities of early Soviet heritage preservation institutions (Turkkomstaris and Sredazkomstaris), the system of specialized restoration workshops established in the postwar period, and the integration of modern national legislation developed during the years of independence with international standards and principles (UNESCO and the Venice Charter).

Keywords: historical monuments, architectural heritage, preservation, restoration, conservation, traditional craftsmanship, Turkkomstaris, Uzkomstaris, 3D laser scanning, Venice Charter, cultural heritage sites.

Kirish

Insoniyat sivilizatsiyasining bebaho xazinasi hisoblangan tarixiy-madaniy va me’moriy obidalar har bir xalqning o‘tmish davlatchilik tarixi, badiiy tafakkuri, muhandislik salohiyati va estetik ideallarini aks ettiruvchi moddiy guvohlardir. Asrlar davomida Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining chorrahasi bo‘lib kelgan O‘zbekiston hududida yuzlab monumental ansambllar, qal’alar, madrasalar, masjidlar, maqbaralar va karvonsaroylar qad ko‘targan [1. 45]. Biroq vaqt o‘tishi, tabiiy-iqlimiy omillar (namlik, yerosti suvlari sathi ko‘tarilishi, haroratning keskin tebranishi, seysmik tebranishlar) hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tufayli ushbu nodir me’moriy yodgorliklar muntazam yemirilish va fizik deformatsiyalarga uchrab turgan. Shu bois tarixiy obidalarni konservatsiya qilish, ularning konstruktiv barqarorligini ta’minlash hamda ilmiy restavratsiya qilish orqali avlodlarga bus-butun yetkazish masalasi qadimdan dolzarb vazifa sanalgan.

Tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash ishlari oddiy qurilish yoki ta’mirlashdan tubdan farq qilib, o‘zida tarixiy hujjatlilik, arxeologik aniqlik, me’moriy autentiklik

(asliyatga sodiqlik) va yuqori muhandislik mahoratini mujassam etgan murakkab ilmiy faoliyatdir [2. 36]. Jahon ta’mirshunoslik fani rivojida 1964-yilgi Xalqaro me’moriy yodgorliklarni saqlash va tiklash xartiyasi (Venetsiya xartiyasi) hamda 1994-yilgi Nara autentiklik hujjati asosiy konseptual poydevor hisoblanadi. Mazkur xalqaro mezonlarga ko‘ra, restavratsiya jarayonida har qanday gipotetik qayta qurish qat’iyan man etiladi, uning asosiy maqsadi obidaning estetik va tarixiy qimmatini uning original moddiy ashyosini asragan holda saqlab qolishdan iborat bo‘lishi lozim [3. 44]. O‘zbekistonda yodgorliklarni saqlash va tiklash amaliyoti o‘ziga xos tarixiy evolyutsiyani bosib o‘tgan bo‘lib, u asrlar davomida shakllangan xalq ustalarining an’anaviy ta’mir maktablaridan tortib, XX asrdagi institutsional davlat tuzilmalari hamda mustaqillik yillaridagi zamonaviy raqamli innovatsiyalar tizimigacha bo‘lgan ulkan taraqqiyot yo‘lini qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi va usullari

Mazkur tadqiqot tarixiylik, xolislik (obyektivlik), qiyosiy-tarixiy tahlil, me’moriy-arxeologik komparativistika, tizimli tizimlashtirish hamda normativ-manbashunoslik usullariga tayanadi. Ishning manbaviy asosini bir necha guruhdagi birlamchi manbalar tashkil etadi. Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA) fondlarida saqlanayotgan me’moriy yodgorliklarni ro‘yxatga olish, ta’mirlash chizmalari va fotohujjatlar majmuasi o‘rganildi. Jumladan, R-3-fond (Turkiston ASSR XKS, 1-ro‘yxat, 204-ish, 1–3-varaqlar), R-400-fond (Turkkomstaris hujjatlari) hamda R-2286-fonddagi (O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Arxitektura ishlari boshqarmasi) Samarqand [3. 105] va Xiva [4. 30] me’moriy yodgorliklarining tiklanish jarayoniga doir fotoalbomlari tahlil qilindi. Ikkinchidan, yodgorliklarni saqlashga oid qonunchilik va me’yoriy hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni [5. 62–64] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy meros sohasini tubdan takomillashtirishga oid farmon va qarorlari qiyosiy o‘rganildi. Uchinchidan, restavratsiya amaliyotida qo‘llanilgan muhandislik-konstruktiv usullar, an’anaviy qorishmalar retsepturasi va zamonaviy raqamli texnologiyalar empirik tahlil qilindi.

Natijalar

O‘zbekiston hududida yodgorliklarni ta’mirlash va tiklash qadimdan an’anaviy ustachilik sulolalari tomonidan amalga oshirib kelingan. O‘rta asrlardan boshlab me’morlar (bino loyihachilari va bosh ustalari), xishtpazlar (maxsus pishiq g‘isht quyuvchilar), ganchkorlar (ganch o‘ymakorlari) va koshinpazlar (sirlangan sopol koshin tayyorlovchilar) yodgorliklar barqarorligini ta’minlashning puxta an’analarini shakllantirgan. Usta Shirin Murodov, Usta G‘ofur Qodirov, Mirumar Asadov, Usta Ro‘zimat Masharipov kabi xalq me’morlari yodgorlik konstruksiyalarini mahalliy tabiiy xomashyolar — ohak, ganch, tuxum oqi, o‘simlik shirasi (qamish, kanop tolalari) va tog‘ toshlari asosidagi pishiq qorishmalar yordamida mustahkamlash sirlarini avloddan avlodga yetkazganlar.

XX asrning boshlarida ushbu an’anaviy tajriba dastlabki ilmiy-muhandislik metodlari bilan uyg‘unlasha boshladi. 1921-yil 21-mayda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi huzurida Muzey ishlari hamda qadimiy yodgorliklar, san’at va tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi (Turkkomstaris) ta’sis etildi [7. 2]. Uning Samarqand bo‘limi (Samkomstaris) va Buxoro komissiyasi (Buxkomstaris) tomonidan obidalarni ro‘yxatga olish va halokat yoqasidagi inshootlarni qutqarish ishlari boshlandi [8. 58]. Bu davrning eng yirik muhandislik yutug‘I –1920-yillarda Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasining qulash arafasida turgan qiyshaygan shimoli-sharqiy minorasini muhandis M. F. Mauer, me’mor B. N. Zasipkin va usta Mahmud qatnashuvida po‘lat qobiqlar va domkratlar yordamida dastlabki mustahkamlash choralari hisoblanadi. Ushbu murakkab operatsiya yodgorlikni buzmasdan, uning o‘z o‘rnida fizik barqarorligini tiklash bo‘yicha mintaqadagi ilk ilmiy restavratsiya namunasi bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda me’moriy yodgorliklarni tiklash jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1958-yil oktabr–noyabr oylaridagi qarorlari bilan Madaniyat vazirligi qoshida Maxsus ilmiy-ta’mirlash ishlab chiqarish ustaxonalari (SNPRM) tashkil etildi. Shu tariqa ta’mirlash ishlari havaskorlik yoki favqulodda choralardan tizimli davlat industriyasi darajasiga ko‘tarildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Shahrisabzda doimiy restavratsiya ustaxonalari, koshin pishirish sexlari hamda loyiha guruhlari shakllantirildi.

Ushbu davrda me’moriy-arxeologik o‘lchovlar, yodgorliklarning poydevorini burg‘ulab o‘rganish, kimyoviy tahlillar va fotofiksatsiya qilish keng yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 1969-yilda Xivadagi Ichan-qal’a majmuasi davlat muzey-qo‘riqxonasiga aylantirilib, butun bir tarixiy shahar ansambli kompleks regeneratsiya qilindi. Samarqandda esa Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalari, Shohi Zinda maqbaralari guruhi hamda Go‘ri Amir maqbarasining qulab tushgan gumbazlari va koshinli qoplamalari ilmiy asosda qayta tiklandi. Buxoroda Somoniylar maqbarasi atrofidagi ko‘p asrlik tuproq qatlamlari tozalanib, bino pishiq g‘isht terilishining asl konstruktiv qiyofasi namoyon etildi [9. 80]. Biroq ushbu davrda ba’zan yodgorliklarga sement-beton qorishmalari kiritilishi, koshinlarni kimyoviy bo‘yoqlar bilan sun’iy yangilash kabi texnologik xatoliklar ham kuzatildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash davlat siyosatining ustuvor ma’naviy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2001-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinib, moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrashning huquqiy mexanizmlari qat’iy belgilab qo‘yildi. Mazkur qonun yodgorliklarni konservatsiya qilish, ta’mirlash, moslashtirish va ilmiy tadqiq etish tamoyillarini xalqaro konvensiyalar talablariga to‘liq uyg‘unlashtirdi.

Zamonaviy bosqichda yodgorliklarni tiklash sohasi sifat jihatidan mutlaqo yangi texnologik darajaga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, «O‘zta’mirlash» instituti hamda xalqaro tashkilotlar (UNESCO, ICOMOS, ICCROM) hamkorligida quyidagi ilg‘or ilmiy-texnologik usullar joriy etilmoqda:

1. 3D lazerli skanerlash va aerofotogrammetriya: Inshootlarning geometrik parametrlari, yoriqlari va egriliklarini millimetrli aniqlikda raqamli xaritasini yaratish imkonini berdi. Samarqand va Shahrisabz obidalari to‘liq raqamlashtirilib, ularning “raqamli egizaklari” (Digital Twins) shakllantirildi.

2. Materialshunoslik va noinvaziv diagnostika: Yodgorlik g‘ishtlari, qorishmalari va koshinlarining mineral tarkibini aniqlashda rentgen-fluoressent (XRF) tahlili hamda

ultratovush tekshiruvlari qo‘llanilib, tarixiy qorishmaga mutlaqo mos keluvchi tabiiy retsepturalar ishlab chiqilmoqda.

3. Seysmik va seysmoizolyatsiya texnologiyalari: Tarixiy binolarning zilzilabardoshligini oshirish maqsadida inshoot poydevorlariga nozik injeksiya usuli bilan gidrofob va mustahkamlovchi polimer-ohakli eritmalar yuborilmoqda.

Muhokama

Tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash amaliyotining ko‘p yillik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu soha doimo nazariy bahslar va metodologik muammolar to‘qnashuvida rivojlanib kelgan. Eng markaziy nazariy masala — bu restavratsiya jarayonida autentiklik (asliylik) tamoyilini qat’iy saqlash hamda buzilgan qismlarni qayta tiklash (rekonstruksiya) o‘rtasidagi chegara masalasidir. Venetsiya xartiyasining 9-moddasida belgilanganidek, restavratsiya qilingan har bir yangi element obidaning asl qismidan vizual yoki ashyoviy jihatdan farqlanishi va hech qachon tarixiy soxtalashtirishga (falsifikatsiyaga) yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

O‘zbekiston amaliyotida ushbu tamoyil o‘ziga xos murakkabliklar bilan kechgan. XX asrning 70–80-yillarida amalga oshirilgan ayrim yirik ta’mirlash loyihalarida tezkor natijaga erishish va yodgorlikka “tantanavor sayqallangan qiyofa” berish maqsadida asl koshin qoplamalari to‘liq ko‘chirilib, o‘rniga zamonaviy pechlarda pishirilgan standart koshinlar terilgan, poydevorlarga esa tabiiy nafas olishga to‘sqinlik qiluvchi portlandsement qorishmalari quyilgan. Bu esa vaqt o‘tishi bilan devorlarda tuz to‘planishi (effloressensiya) va namlikning yuqoriga ko‘tarilishiga olib kelgan.

Bugungi kunda mazkur xatoliklardan ilmiy saboq chiqarilib, zamonaviy ta’mirshunoslikda minimal intervensiya (minimal darajada aralashuv) va reversibilitet (qo‘llanilgan yangi materialni kelgusida obidaga zarar yetkazmasdan olib tashlash imkoniyati) qoidalari asosiy mezon qilib olinmoqda. Ayniqsa, an’anaviy ganchkorlik va xishtpazlik maktablarini qayta tiklash, xalq ustalari sulolalarini bevosita ilmiy restavratsiya jarayonlariga jalb qilish hamda ularning empirik bilimlarini zamonaviy laboratoriya tahlillari bilan mustahkamlash ta’mirlash sifati va umrboqiyligini oshirishning garovidir.

Xulosa

Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarga kelish mumkin.

Tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash ishlari O‘zbekistonda asrlar davomida xalq me’morlari tomonidan qo‘llanib kelingan an’anaviy ta’mir usullaridan boshlab, XX asrdagi institutsional davlat boshqaruvi hamda bugungi kunning yuqori texnologiyali raqamli restavratsiya tizimigacha bo‘lgan ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

1950–1980-yillardagi ixtisoslashtirilgan ilmiy-ta’mirlash ustaxonalari tizimi Samarqand, Buxoro va Xivadagi noyob me’moriy ansambllarni to‘liq qulab yo‘q bo‘lib ketishdan asrab qolgan bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda autentiklik mezonlarining buzilishi va sun’iy yangilash amaliyoti kuzatildi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan huquqiy baza — xususan, «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonun merosni xalqaro mezonlar asosida asrashning mustahkam mexanizmini yaratdi.

Zamonaviy bosqichda 3D lazer skanerlash, raqamli fotogrammetriya va BIM modellashtirishning joriy etilishi tarixiy obidalarning fizik holatini doimiy monitoring qilish, konstruktiv nuqsonlarni erta bosqichda aniqlash hamda ta’mirlashda minimal noinvaziv aralashuvni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida ta’mirshunos mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish, an’anaviy hunarmandchilik sirlarini ilmiy tadqiq etish hamda yodgorliklar joylashgan tarixiy shahar muhitining daxlsizligini ta’minlash madaniy merosni kelgusi avlodlarga bus-butun yetkazishning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Is’hoqov M. Tarixiy yodgorliklar va ularning muhofazasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 45.

2. Пугаченкова Г. А. Самарканд, Бухара: по древним памятникам Самарканда и Бухары. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1961. – С. 36.

3. Tolipov F. B., Mirzayev Sh. A. Tarixiy-me’moriy obidalarni konservatsiya va restavratsiya qilish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 44.

4. O‘zR MDA, R-2286-fond, 1-ro‘yxat, 149-ish, 105-varaq.

5. O‘zR MDA, R-2286-fond, 1-ro‘yxat, 154-ish, 30-varaq.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-sonli «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2001. – № 9–10. – M. 180. – B. 62–64.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA), R-3-fond, 1-ro‘yxat, 204-ish, 2-varaq.

8. Горшенина С. М. Туркомстарис – Средазкомстарис – Узкомстарис: формирование институций и этноцентрический раздел культурного наследия Средней Азии // Этнографическое обозрение. – 2013. – № 1. – С. 58.

9. Шишкин В. А. Варахша. – М.: Изд-vo AN SSSR, 1963. – С. 80.